

RAQAMLI IQTISODIYOT: TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALAR YANGI DAVRI

Xamidova Dilorom Muhitdinovna

Xalqaro Innovatsion Universiteti “Iqtisodiyot va moliya” kafedrasи o‘qituvchisi

khamidovadilorom.25@gmail.ru

Safarova Gulsanam Avaz qizi

Xalqaro Innovatsion Universiteti “Iqtisodiyot” ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

safarovagulsanam129@gmail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14785066>

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylanib borayotganligi va bozor rivojlanishini tezlashtiruvchi omil sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy dunyoda innovatsiyalardan keng foydalanish orqali- tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga erishish mumkinligi haqida taklif va tavsiyalar berilgan. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etilishikorxonalar uchun ijobiy qadamdir. Innovatsion texnologiyalarni samarali axborotlashtirish makroiqtisodiy ko’rsatkichlar va korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini sezilarli darajada oshirib boradi, bu esa boshqaruv qarorlari sifati va darajasini, axborot jarayonlari va xizmatlari samaradorligini oshirishga olib keladi, bu esa o’z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy, texnik, madaniy va hayotning boshqa ko’rsatkichlarini yaxshilanishiga ko’mak beradi.

Kalit so’zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiya, innovatsiya, iqtisodiyot, innovatsion iqtisodiyot, kompyuter texnologiyalar, innovatsion texnologiya, tadbirkorlik, ilmiy, texnik, madaniy hayot.

ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА: НОВАЯ ЭРА ТЕХНОЛОГИЙ И ИННОВАЦИЙ

Аннотация. В данной статье анализируется тот факт, что она становится одной из наиболее характерных черт развития цифровой экономики и является фактором, ускоряющим развитие рынка. Также даются предложения и рекомендации, что быстрого развития предпринимательства можно добиться за счет широкого использования инноваций в современном мире. Внедрение современных инновационных технологий является позитивным шагом для предприятий.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровые технологии, инновации, экономика, инновационная экономика, компьютерные технологии, инновационные технологии, предпринимательство, научная, техническая, культурная жизнь.

DIGITAL ECONOMY: A NEW ERA OF TECHNOLOGY AND INNOVATION

Abstract. This article analyzes the fact that it is becoming one of the most characteristic features of the development of the digital economy and is a factor that accelerates the development of the market. Also, suggestions and recommendations are given that rapid development of entrepreneurship can be achieved through the wide use of innovations in the modern world. The introduction of modern innovative technologies is a positive step for enterprises.

Key words: digital economy, digital technology, innovation, economy, innovative economy, computer technologies, innovative technology, entrepreneurship, scientific, technical, cultural life.

Xozirgi zamonda innovatsiyalardan keng foydalanish orqali- tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga erishish mumkin. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish korxonalar uchun ijobjiy qadam bo'lishi mumkin. Innovatsion texnologiyalarni samarali axborotlashtirish makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini sezilarli darajada oshiradi va bu boshqaruv qarorlari sifati va darajasini, axborot jarayonlari va xizmatlari samaradorligini oshirishga olib keladi, bu o'z-o'zidan ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy, texnik, madaniy va hayotning boshqa ko'rsatkichlarini yaxshilanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalar dunyo iqtisodiyotini samaradorligini sezilarli darajada o'zgartiradi.

Global tarmoq, raqamli qurilmalar iqtisodiy o'sishning drayveri hisoblangan budavrda ularning tarmoqlardagi ro'li beqiyos ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga bir oz avval kirishilgan. Juhon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmsdan erishib bo'lmasligi aniq. Bugungi kunimizda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortib borishi hamda ularni keng joriy qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari hozirgi zamonda har bir davlat uchun jiddiy hayotiy masalaga aylanib bo'lgn.

Raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne'matlarining ustuvor o'rni bilan tavsiflanadi. Raqamli iqtisodiyot – bu o'ziga xos nazariya bo'lib, uning o'rganish ob'ekti, axborotlashgan jamiyatjarayonlari hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot nazariyasi o'z rivojlanishining boshlang'ich davridadir, chunki tsivilizatsiyaning raqamli axborot bosqichiga o'tishi bir necha o'n yil avvalgina boshlangan.

“Raqamli iqtisodiyot” atamasi ilmiy amaliyatga ispaniyalik va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi Manuel Kastels tomonidan kiritilgan. Bu borada u o‘zining “Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat” nomli uch jildli monografiyasini chop etgan. Raqamli texnologiyalar aholi uchun va tadbirkorlik sub’ektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yanada rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı ishlab chiqildi (<https://my.gov.uz>). Bugungi kunda Yagona portal orqali 176 tadan ortiq elektron davlat xizmati taqdim etilmoqda.

Tadbirkorlarning, shu jumladan, chet el investorlari murojaatlari bilan ishslashni tashkil etish sifati va tezkorligini oshirish, ular bilan ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni ta’minalash, ularning qonuniy talablarini amaliy va samarali ro‘yobga chiqarish va muammoli masalalarini hal etish maqsadida Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko‘rib chiqish virtual qabulxonasi “business.gov.uz” portali ishga tushirildi. O‘zbekiston aholisining 60 foizi yoshlari bo‘lib, ularni zamonaviy axborot texnologiyalariga keng jalb qilish, dasturiy mahsulot yaratish va autsoring xizmatlarini ko‘rsatishga ko‘maklashish orqali ish bilan ta’minalash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotning paydo bo„lishi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va Global Internet tarmog‘isiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. “Raqamli iqtisodiyot”, AKT va Internet tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Hozirgi kunda mavjud bo‘lgan Internet dastavval 1995-yilda vujudga kelgan. O’sha paytdan boshlab Internet orqali taqdim etiladigan turli xil xizmatlar - fayllarni uzatish, masofadan kirish (TELNET), elektron pochta, qidiruv tizimlari, forumlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar bilan to„ldirilgan “virtual dunyo”ning paydo bo„lishi haqida gapirish mumkin. Bugungi kunda Internet ulkan ko„ngilochar, ta„lim, savdo, moliyaviy va siyosiy sohadir. Raqamli iqtisodiyot bizning hayotimizda va jamiyatimizda misli ko‘rinmas darajada imkoniyatlar bilan bir qatorda ayrim muommolarni keltirib chiqaradi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda AQSH, Britaniya, Germaniya, Yaponiya, kabi yetakchi mamlakatlar uchun ustuvor yo‘nalishlardan biri hisblanib kelmoqda. Raqamli iqtisodiyot ilk bor Yaponiya inqirozi davrida Yapon professori tomonidan 1990-yillarda qo‘llanilgan. 1995-yil Yevropada Don Tapskotning asari va 1995-yil Nikolas Negroponte AQSH ning tadqiqot ishida qo‘llanilgan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisiga Murojatnomasida 2030-yilgacha “Raqamli O‘zbekiston 2030” dasturini amalga oshirishni taklif etadi.

Raqamli inqilob bizning hayotimizda va jamiyatimizda misli ko'rilmagan darajada o'zgartiri, 25-yil ichida ulkan imkoniyatlar bilan bir qatorda ayrim muommalarni keltirib chiqaradi. Raqamli iqtisodiyot dasturining asosiy maqsadlari bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqaamlar ko'rinishidagi ma'lumotlar bo'lib kata hajmdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish texnologiyalari, qurilmalar saqlash mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizmdan samaliroq yechimlar tafbiq qilishdir. Onlayn xizmat ko'rsatish, internet savdo raqamli kompyuter texnologiyalarning rivojlanishi electron to'lovlani amalga oshirish shunga o'xshash muommalarni xal qilish uchun o'z faoliyatini olib bormoqda. Bundan tashqari to'lovlarning narxini pasaytirishda yordam beradi, yangi daomad manbalarini ochadi va dunyoning istalgan burchagidagi odamlar uchun ochiq bulishini va tovarlar va xizmatlar tezda global bozorga chiqishiga yordam berib keladi. Bu tizimda axborot va ma'lumotlar, raqamli platformalar va xizmatlarni o'zaro bog'lab iqtisodiy faoliyatlarni osonlashtirib va yangi imkoniyatlar yaratib kelinmoqda va shu borada raqamli iqtisodiyot yangi ish joylarni yaratishda ham kattadan- katta yordam bermoqda. Raqamli iqtisodiyot turli sohalar o'rtaida o'zaro ta'sir va hamkorlikni osonlashtirib, xizmat qilib kelmoqda va shu borada raqamli iqtisodiyotning yangi ish joylarini yaratishda ham kattadan- kata asosiy elemetlardan biri bu Internet, bulutli hisoblash, katta ma'lumotlar (big data) va bu tuzulishi(blockchain) texnologiyalarning yo'ga qo'yilishi raqamli iqtisodiyotni qulay qilib beradi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologik taraqqiyot sharoitida O'zbekistonning keyingi iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan etish qiyin. Shu bois ishtirokchilar soni ko'p va IT xizmatlar keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanadi. "O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'rsida hamda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan blokchayn texnologiyalarini ishlab chiqarish va undan oqilona tarzda kadrlar tayyorlash kabi maqsadlar qabul qilindi. Bu soha iqtisodiyot dunyo iqtisodiyotida yangi yo'nalish hisoblanib keladi. Bu sohada rivojlangan davlatlar bu yo'nalishlardan ko'plab yutuqlar erishgan bo'lsa, boshqalari bu yo'nalishda ilgarilab bormoqdalar. Bugungi kunga kelib Xalqaro elektralogiya ittifoqining (XEI) hisobotiga ko'ra axborot – kommunikatsiya texnologiyalari AKT sohasida eng rivojlangan davlatlardan biri hisoblanib kelmoqda. Koreya Respublikasi, Islandiya, Daniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Shvetsiya, Gollandiya, Norvegiya, Yaponiya hisoblanadi.

Tranzaksion platformalar va innovatsion platformalar mavjud bo`lib, tranzaksion platformalar -bu ikki yoki ko`p tomonlama bozor va turli tomonlar o`rtasidagi almashinuvlarni qo`llab quvvatlaydigan onlayn infratuzulma hisoblanadi. Ular yirik yirik raqamli korporatsiyalar (Amazon, Alibaba, Facebook va eBay) singari shuningdik, raqamli qo`llab-quvvatlanadigan tarmoqlar (Uber, Didi yoki Chuxing) ma`qul ko`radiganlar uchun asosiy biznes modeliga aylanadi.

Masalan innovatsion plotformalar operatsion tizimlar masalan Android yoki Linuxlar texnologiya standartlari MPEG vedio shaklida ilova dasturlar va dasturiy paketlar ishlab chiqish uchun kool va kontent ishlab chiqarish uchun muhit yaratadi. Raqamli iqtisodiyotda platformaga asoslangan bu ko`p xollarda biznes sohasiga katta ustunligiga ega bo`lib, shuningdek ular o`rtasida to`g`ridan to`g`ri muloqot qilish imkoniyatlarini amalga oshirib kelishda yordam berib kelmoqda.

Ular infratuzilma sifatida onlayn harakatlar va platforma foydalanuvchilar o`rtasida o`zaro aloqalar bilan bog`liq barcha ma`lumotlarni yozib olish va o`chirish imkoniyatiga ega. Raqamli platformalar hozirgi kunda-bozorlarni o`zgartirib yangi bozorlarni yaratadigan innovatsiyalarga ega hisoblanmoqda. Shu qatorda biznesga kirib kelganda bozorda o`yinchilar modellarni raqamli platforma egalari o`z ta`sirini kuchaytiradi va ta`minot zanjirini nazorat qilib narxlash ustida nazoratning boshqa usullarini egallashda xizmat ko`rsatadi va axborotlarni sun`iy nomutanosibligini yaratish orqali talab va tahlilga ta`sir etadi. Xizmat ko`rsatish platformalari Uber, Luft kabi platformalar xizmat ko`rsatish va foydalanuvchilar o`rtasida o`zaro aloqalarni yaratadi. Bu tizim ko`pincha an`anaviy modellarni o`zgartirib yangi iqtisodiy modellar yaratib kelmoqda. Xizmat ko`rsatish platformalarga yana masofadan xizmatlar ko`rsatish jarayonlari ham kiradi. Bularga misollar keltirib o`tadigan bo`lsak masalan: masofaviy bank xizmatlarini ko`rsatish turli bank operatsiyalarni masofadan amalga oshirishni beradigan xizmtlar komplekslari hisoblanib keladi. O`z navbatida korxona va tashkilotlar uchun bank hisob varaqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobot varaqalaridagi mablag`larini tassaruf etish va to`lovlarni amalga oshirish valyuta mablag`larni sotib olish uchun buyurtmani elektron shaklda xizmat ko`rsatuvchi bankga yuborish, oylik ish haqqi va unga tenglashtirilgan to`lovlarni o`tkazish uchun elektron shaklda xizmat ko`rsatuvchi bankga yuborish oylik ish haqqi va unga tenglashtirilgan to`lovlarni o`tkazish uchun elektron qaytnomalarini banklarga uzatib boshqa xizmatlardan foydalanish bo`yicha ko`plab imkoniyatlarni yaratib kelmoqda. Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiyotni tubdan o`zlartirib, global miqyosda rivojlanishning asosiy omiliga aylanmoqda. Ushbu davrning asosiy xususiyatlari texnologik rivojlanish innovatsiyalar, iqtisodiy samaradorlik, globalizatsiya va hamkorlikdir.

Raqamli iqtisodiyot texnologiya va innovatsiyalar yordamida yangi iqtisodiy davrni bashlab berdi. Bu jarayon milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o`rinlarini yaratish va turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va texnologiyalarni ommalashtirish bugungi kunning ustuvor vazifasi bo`lib kelmoqda.

REFERENCES

1. Abdullajonov.D.“Raqamli texnologiyalar orqali yangi O’zbekistonning iqtisodiyotini rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotning istiqbollari” "Экономика и социум" №12(91)-1 2021 www.iupr.ru
2. Kadirova G.X. “Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish jarayonida innovatsion samaradorligini oshirishning asoslari” So’ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 6-jild 6-son respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.06.2023
3. Urozova Sh. Innovatsion va raqamli texnologiyalarni iqtisodiy o’sishga ta’siri. June 2024. [Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil](https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss6-pp240-247) 2(6):240-247. DOI:[10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss6-pp240-247](https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss6-pp240-247)
4. R.Ayupov. Raqamli iqtisodiyot va electron tijoratda yangi texnologiyalar. 553-bet
5. Bozarov, D. (2023). Methods of developing economic competence on the basis of interdisciplinary relationship. Modern Science and Research, 2(12), 131-137.
6. Uralovich, B. D. (2023). About the properties of networks. Academia Science Repository, 4(04), 353-357.
7. Ibroximovna, M. S. (2024). FACTORS OF DEVELOPING OF INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH TO CADETS OF MILITARY UNIVERSITY. Лучшие интеллектуальные исследования, 15(1), 159-163.
8. Musayeva, S. I. (2024, May). DEVELOPMENT OF INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE OF CADETS USING INTERACTIVE METHODS. In Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (Vol. 3, No. 5, pp. 276-284).
9. Bozarov, D. (2022). PROBLEMS OF SYSTEMS OF LINEAR ALGEBRAIC EQUATIONS. Science and Innovation, 1(2), 163-171.
10. Olimovich, T. E., Uralovich, B. D., & Matlubovich, M. J. (2021). Effective Methods in Teaching Mathematics. International Journal on Orange Technologies, 3(3), 88-90.

11. Bozarov, D., & Rahmonov, B. (2024). KOMBINATORIKANING PAYDO BO'LISHI VA HAYOTIY MASALALARGA TADBIQI. Modern Science and Research, 3(6).
12. Dilmurod, B., & Islom, A. (2023). Parallel ikkita to'g'ri chiziq orasidagi masofa. Innovations in Technology and Science Education, 2(8), 465-478.
13. Allamova, M., & Bozarov, D. (2023). Trigonometrik tengsizliklar yechimlarining innovatsion qo'llanilishi. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(1), 75-78.